

Ma'naviyat mash'alasi mangu porlaydi !

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adbiyoti fakulteti talabasi **Zohirova Malika Sobir qizi,**

Ilmiy rahbar: A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika
instituti o'qituvchi **Usmonov Aslam Qarshiboyevich.**

Ma'naviyatni Sharq mamlakatlarining asriy merosi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Prezidentimizning ma'naviyat va ma'rifat tizimida e'lon qilingan qarorlari ko'pchilikni to'liqlantirib yubordi. E'tiborning amaliy ifodasi o'z natijasi albatta, ko'rsatajak. Oliy ta'limdagi yangi yo'nalish ham yosh targ'ibotchibotchilarga yanada shijoat berdi. Bu qarorlarni hayotga tadbqiq etish nafaqat ma'naviyatchilarni, ba'lki barchamizning burchimizdir: Qo'lni qo'lga bersak, bir jamoa, bir xalq bo'lib ma'naviy muhitni ham yanada rivojlantira olamiz. Demak, bu yilgi ma'naviyat festivallari yanada yuksak saviyada bo'ladi. Chekka hududlarda ham ma'naviy e'tiborni yetkazish yo'lida zamonaviy metodlardan foydalanishga tayyormiz. Vaqt - bu imkon. Imkon esa vaqtda foydalanishdir. Imkon bor, e'tibor bor, bizdan esa harakat bo'lsa yetarli. E'tibor, ishonch va imkoniyat uchun ma'navioyatimizni shakllantirib boprishimiz kerak.

Ijod ahli Prezidentimizning soha rivoji uchun imzolagan ikki qarorini ko'tarinki ruh bilan kutib oldi. Bir- biriga payvasta bu ikki qaror ma'naviyat va adabiyotimizning bugungi rivoji yo'lida qanot baxsh etadi. Zotan, adabiyot-xalqning yuragi, degan yuksak aqidaga tayangan holda, ijopd ahli ezgulikka qalqon bo'lib, ma'naviy qadriyatlarga axborot xuruji, ma'naviy tahdid qilayotgan yovuz kuchlarga qarshi murosasiz kurash olib boradilar, albatta. Bugun "Ma'naviyat" kalimasiga zarurat kuchaygani hech birimizga sir emas. Milliy, diniy qadriyatlarimizga, xalqimizga xos urflarga qaratilgan turfa ta'sir, farzandlarimizni ko'ziga va qulog'iga kirishga urinayotgan yot g'oyalar sabab jiddiy kurashishimiz zarur. Har bir farzandning ma'naviy olami va uning ongidagi bo'shliqni qaysi ozuqa bilan to'ldirish masalasi bugun davlatimiz rahbarlarini ham tashvishga solmoqda. To'g'ri, o'tgan davr mobaynida qaysidir tahdid barham topdi, boshqasi, aksincha, kuchaydi. Bunda har birimiz tomoshabin bo'ldik, yoki bevosita

ishtirokchiga aylandik. Bugun ma'naviyatsizlik virusini tarqashiga ma'lum ma'noda sababchi bo'ldik. Endilikda bu virusni yengishga davlat rahbari boshchiligida ma'naviyat safariga chiqildi. Ma'naviyat sohasidagi ishlarga mas'ul etib har bir hududning hokimi belgilandi. Bunga jiddiy qaralsa, har sohada yuksak marralarni zabt eta olamiz, deb o'ylayman.

Hayot sur'atining tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi. Chunki, ayni shu sohada yuzaga kelayotgan muammolar boshqa sohalar muammosi yechimi bo'lmoqda. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni xal qilib bo'lmaydi. Yuirtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi sa'y- harakatlarimizning bosh maqsadi, ya'ni "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini amalga oshirish davr talabigqa aylangan haqiqatdir.

Muhim vazifalardan yana biri - el -yurt taqdiriga loqayd ish uslubida, mahalliylikka, urug' - aymoqchilikka yo'l qo'yadigan rahbarlar bilan murosasiz bo'lish. Bu illatlar alohida bir mamlakatda bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Ular hamma joyda va hamma vaqt ijtimoiy adolatning bo'lishiga, halollik va erksevarlik ildizlarining sustlashishiga, oshkoralik qolib, imi - jimida ish bitirishga sabab bo'ladi. Shu bois, davlatimiz rahbarining yangi xalqchil siyosatida nomaqbul holatlarga barham berish muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz 19- yanvar kuni ma'naviy - marifiy ishlar tizmini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'inlarida "Bugun hayot yangi fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari" mizni tashkillashtirishni talab etmoqda. Lekin, afsuski dunyodagi, yon - atrofimizda kechayotgan siyosiy - ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan va ommabop shaklda yetkazib beradigan tahlilchi va eksperellarimiz juda ham" deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, ayni paytda dunyo ayvonida yuz berayotgan voqealar har doimgidan ham ko'proq mushohada yuritishni, nafaqat bugunimizga, ertangi

kunbimizga ham xushyorlik bilan nazar solishni talab qilmoqda. Ushbu talabga javob beradigan ziyolilar, yetuk shaxslar hozirgi ma'naviy - ma'rifiy jarayonni to'ldiradigan qanday takliflarni o'rta tashlay oladi?

“Ma'naviy qashshoqlik” degani odam bolasi uchun nihoyatda og'ir, balki shifosi topilmayotgan dardlardan - da xavfli, qo'rqinchli, ayanchli holat hisoblanadi. Bu holatni ustini berkitish maqsadida, dabdabali to'y yoxud imoratlar bilan o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Balki, shuning uchun ham yaratgan egam muqaddas kalimasida, “O'zini tuzalishini istamagan qavmning ishlarini tuzatmaymiz” mazmunida ogohlantiridir...

Abdulla Qahhor yozgan “Sarob” romanining bir nashrida bir gap bor: “Kim qanday yashasa, shunday o'ylaydi”. Afsuski, juda ko'pchiligimiz bu gapni nihoyatda yuzaki tushunamiz va shundan kelib chiqib talqin qilamiz. Ya'ni “Qanday yashash” degan gapni faqat iqtisodiy, moddiy holatga ishora deb tushunamiz va “aqli xulosalar” yasaymiz : “Soy soyga oqar, boy boyga boqar”, “Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boy bolasi gapirsin” qabilidagi. Holbuki, masalan Alisher Navoiy hazratlarining eng birinchi, eng og'ir, eng ko'p o'ylari aynan el - ulus ahvoli - ruhiyati haqida bo'lgan-ki, bu maqomga ul zotning moddiy holatlari xalal bermagan, aksincha madad bo'lgan edi.

Demoqchimanki, “Kim ne e'tiqod - maslak bilan, ne o'y- tashvish-u ne umid va orzu bilan, ne maqsad- muddao bilan yashasa" tarzida kengroq tushunilsa va shundan kelib chiqib mushohada yuritilsa, to'g'riroq bo'ladi. Ana shunda siz bilan biz suratga emas, ko'proq siyratga boqqan, shu siyrat - insonning ma'naviy, ma'rifiy, intellektual, madaniy sifatlariga qarab uni baholagan - yo e'zozga yoxud ehtirosga loyiq topgan bo'lar edik.

Hozirgi kunda yangi avlodning safi shu qadr keng , ijodiy talpinishlari shunchalik rang- barangki, ularning barchasi hususida dabdurustdan yagona xulosaga da'vo qiladigan gap aytish mumkin ham emas, kerak ham emas. Bu jiddiy ijodkorlarning har biri alohida talqin-u tahlilni talab etadigan asarlari xususida yo'l- yo'lakay gap aytish insoniy qismat daraja etilgan go'zallikning, san'atning, kuy va simfoniyaning yonidan shunchaki o'tib ketib qolishmaydi.

Aytmoqchimanki, bugungi kunda texnika, texnologiya, aniq va tabiiy fanlar universal - hammabop harakterga ega.

Prezidentimiz 19- yanvar kuni ma'naviy ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida ma'naviy qashshoqlik va shu kabi masalarni o'rtaga tashladi. Masala, mamlakat vamillatni kelajagiga befarq bo'lmagan ko'plab davlatlar jumladan, G'arbning eng rivojlangan, demokratik mamlakatlarida ham internet xavfsizligini ta'minlash, aholi ong-u shuurini buzg'unchi g'oya va da'vatlardan yiroqda tutuvchi turli xizmatlar yo'lga qo'yilganini yodda tutishishimiz lozim.

Insoniyat tarixi ma'naviyatsiz kishida hech qachon odamiylik, mehr- oqibat singari fazilatlar bo'lmasligini tasdiqladi. Bugungi tezkor zamonda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina o'z milliy qadriyatini yuksaltirish orqali o'zini teran anglashi, erkin va ozod O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik ko'rsata olishi mumkin. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak. Ma'naviyat insonning ong-u shuuriga yillar davomida ajdodlar o'giti, oila tarbiyasi, hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra - qatra bo'lib singib boradi.

“Odamlar! Eng avvalo, ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir” (Pifagor)